

SURXONDARYO VILOYATINING AHOLISI VA UNING DEMOGRAFIK JARAYONLARI

Xolboyeva Marjona Xayrullayevna

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nanlishi 2-kurs talabasi

Ochilova Gulasal Muzaffarovna

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18082461>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining aholi soni, tabiiy harakati, migratsiya holatlari, keng yoritiladi. Viloyat aholisining son jihatdan o'sib borayotgani, ayniqsa tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi, migratsiya oqimlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil etiladi. Maqolada statistik ma'lumotlar, demografik ko'rsatkichlar hamda dolzarb muammolar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Surxondaryo viloyati misolida mamlakatdagi umumiy demografik jarayonlar, ichki va tashqi migratsiya, ijtimoiy geografik yondashuv asosida chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar orqali hududiy rivojlanish siyosatida demografik omillarning o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Aholi, tabiiy ko'payish, o'lim migratsiya, emigratsiya, imigratsiya jarayonlari.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the population, natural movements, and migration patterns of Surkhandarya region. The quantitative growth of the region's population, especially the high birth rate, migration flows, and their socio-economic consequences are analyzed. The article develops conclusions and proposals based on statistical data, demographic indicators, and current problems. Using the example of Surkhandarya region, the general demographic processes in the country, internal and external migration, and a socio-geographic approach are analyzed in depth. Through these analyses, the role of demographic factors in regional development policy is revealed.

Keywords: Natural population growth, mortality, migration, emigration, migration processes.

Aholi» tushunchasi ko'proq aholi geografiyasi, iqtisodiyot, tibbiyot kabi ijtimoiy (gumanitar) sohalarida qo'llanilib, u ma'lum bir hududda yashovchi kishilarning birligini anglatadi. Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi. Aholisiz ishlab chiqarishning o'zi ham, fan va texnikaning rivojlanishi va mavjudligi ham bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, aholi sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining, transportning va xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy iste'molchisidir. Shu sababli, aholining soni har bir mamlakat uchun muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha dunyoda o'rtacha demografik salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir. Respublikamiz aholisi, 2024 yil 1-yanvar ma'lumotlariga ko'ra 36799,8 ming kishini tashkil etadi. Surxondaryo viloyati respublikamizning boshqa mintaqalariga nisbatan Qashqadaryo viloyati bilan birgalikda aholi tabiiy ko'payishi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan mintaqalaridan biridir. Viloyat aholisiga oid tarixiy manbalarga ko'ra Buxoro amirligi davrida bu yerda 167 ming kishi yashagan. Aholi zichligi har bir kvadrat kilometrda 7,9 kishi to'g'ri kelgan. Mintaqa aholisi 1926 yilda 203 ming kishini tashkil etgan. Ushbu davr oralig'ida umumiy ko'payish esa 8 ming kishiga teng bo'lib, viloyat aholisi 155% ga o'sgan. Biroq mazkur yillarda iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyotning qo'liqligi, ocharchilik, epidemiya kasalliklar oqibatida aholi o'rtasida o'limning yuqoriligi aholi sonining sekinlik bilan ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Aholining tabiiy ko'payishi asosan aholi orasida tug'ilish va

o'lim ko'rsatkichlari nisbatiga ko'ra amalga oshadi. Aholi sonining ko'payib borishini aniqlovchi asosiy indikatorlaridan biri bu mintaqa yoki ma'lum bir hududdagi aholi orasida har bir ming kishiga to'g'ri keladigan tug'ilish, o'lim va migratsiya sal'dosi ko'rsatkichlari muhim rol o'ynaydi.

Aholining tabiiy ko'payishi:

Surxondaryo viloyati respublikamizda aholining tabiiy ko'payishi ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mintaqalaridan biridir. Bunga asosiy sabab, viloyat aholisi tarkibida qishloq aholisi hissasining yuqoriligi, (63,7% -2023y 1-yanvar) tarixiy milliy urf-odatlariga mos ko'p farzandlikning saqlanib qolishi, o'rtacha umr ko'rish darajasining yuqori bo'lishi, o'limning barqarorligi bilan belgilanadi. 2009 yildan 2018 yilgacha bo'lgan so'nggi o'n yilliklarda tug'ilish koeffitsienti ko'rsatkichi bo'yicha viloyat faqat 2009 yilda Xorazm viloyatidan keyingi ikkinchi o'rinda bo'lsada qolgan yillarda yetakchi o'rinni egallagan. 2009 yilda viloyatda tug'ilish koeffitsienti 24,9 promilleni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilda eng yuqori 27,0 promillega o'sib borgan. Faqat bu ko'rsatkich 2016 yilda 2015 yilga nisbatan 1,3 promillega pasaygan xolos. 2016 yildan keyingina bu ko'rsatkich yana o'sib borgan. 2017yildan boshlab viloyatda aholining tug'ilish koeffitsienti 26,1 promilledan, 2021 yilda 29,9 promillega o'sib borgan. Bu ko'rsatkich 2022yilda 2021yilga nisbatan 0,5 promillega pasaygan. Tadqiq etilayotgan barcha yillarda viloyatda tug'ilish koeffitsienti ko'rsatkichi respublika jami tug'ilish koeffitsientidan yuqori bo'lgan. Surxondaryoda tug'ilish kursatkichlari kamayib borayotgan bulsa-da,u xamon mamlakat miqyosida eng yuqori. 2008 - yilda viloyatda tug'ilish 25,8 promille bo'lgan holda, u 2013-yilda 24,6, 2019 yilda 25,9 promilleni tashkil qilgan; o'lganlar, mos ravishda, 3,9 va 4,1 %, tabiiy ko'payish - 21,9 va 20,5 % bo'lgan, Boysun, Uzun, Qiziriq,Termiz, Sho'rchi va Sariosiyo tumanlarida yuqori, qolgan tumanlarda esa o'rtacha yoki undan pastroq. Tug'ilishning yuqori bo'lishiga qator sabablar ta'sir qiladi. Ular jumlasiga aholining milliy tarkibida demografik ko'p bolalikka moyilligi yoqori bo'lgan mahalliy millat vakillarining (o'zbeklar, tojiklar) ko'pligi, urbanizatsiya va aholi bandligi darajalarining pastligi, ayrim urf-odatlar va boshqa omillar kiradi. Viloyat aholisining 84,2 % o'zbeklar, 12,4 % tojiklardan iborat (2019 y.). Boshqa millat vakillari orasida turkman va ruslar koproq. Mamlakatimizning qator mintaqalarida bo'lganidek, Surxondaryoda ham tashqi migratsiya natijasi oz salbiylik xususiyatini yo'qotmoqda. 2019-yil yakunlariga ko'ra, u Termiz shahrida eng katta manfiy qoldiqqa ega bo'lgan holda, ko'pchilik qishloq, tumanlarida ijobiydir.

O'lim jarayoni: Aholi o'limi uning takror barpo bo'lishidagi asosiy jarayondir. Chunki, aholining tabiiy o'sishi tug'ilish bilan bir qatorda o'limga ham bog'liqdir. Tug'ilish yuqori, o'lim kam bo'lgan hollardagina aholining tabiiy o'sishi yuqori darajada bo'ladi. Maxsus olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jamiyat taraqqiyoti davomida XVIII asrning ikkinchi yarmigacha qadar dunyoning barcha hududlarida o'lim juda ko'p bo'lgan.

Quyidagi asosiy sabablarga ko'ra vafot etish holatlari.

N	Asosiy sabablari	Ulushi
1	Qon-yurak-tomir kasalliklari	57.7%
2	O't pishirish azolari kasalliklari	12.8%

3	O'simtalar (rak)	4.3%
4	Nafas olish yo'llari kasalliklar	3.1%
5	Infeksion kasalliklar	3.0%
6	Baxtsiz hodisalar	1.8%
7	Zaharlanish va jarahotlar	0.6%
8	Boshqa kassaliklar	-16%

Xulosa qilib aytganda, viloyatda aholi sonining o'sishi yuqori bo'lgan tumanlarga Denov, Termiz shahri, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, SHo'rchi tumanlari kiradi. Qolgan tumanlarning ko'rsatkichi ancha past darajani tashkil etgan. 2017 yilda viloyatda tug'ilganlar soni 64,4 ming nafarni tashkil etib, o'lganlar soni 11,3 ming nafar, migratsiya saldosi esa minus 2,3 ming kishini tashkil qilgan. Aholining umumiy ko'payishi 50,8 ming kishi yoki o'tgan yilga (2016y) nisbatan tabiiy o'sish 1,02 foizni tashkil etgan. 2018 yilga kelib viloyatda tug'ilganlar soni 68 ming nafarni, vafot etganlar 10,7 ming nafarni, tabiiy o'sish 57,4 ming kishini tashkil etgan. Mintaqada aholi tug'ilishining yuqori bo'lishining bir qator sabablari mavjuddir. Ular jumlasiga jami aholi milliy tarkibida ko'p bolalikka mayli yuqori bo'lgan mahalliy millat vakillarining (o'zbeklar, tojiklar) ko'pligi, urbanizatsiya va aholi bandligi darajalarining pastligi hamda ayrim urf-odatlar va boshqa omillar kiradi.

Migratsiya jarayoni: Surxondaryo viloyatida aholi migratsiyasi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, o'tgan XX-asrning boshlarida mintaqaga CHor Rossiyasi davrida keyinroq esa sobiq Ittifoq davrida rusiyazabon va boshqa millat vakillarining ko'chib kelishi jarayonlari ro'y bergan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi davrida front chizig'i rayonlaridan aholining evakuatsiya qilinishi natijasida aholining ma'lum bir qismi viloyat hududiga joylashtirilgan. 1960-70 yillarda viloyatda ichki migratsiya jarayonlari faollashib bu davrda Surxon - SHerobod vodiysining o'zlashtirilishi va bu yerda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish maqsadida aholisi zich bo'lgan shimoliy tumanlar va tog' va tog'oldi hududlardan aholi reja asosida ko'chirilgan.

2017 yilda Surxondaryo viloyatida ko'chib kelganlar soni 14456 nafar kishini tashkil etgan bo'lsa, ko'chib ketganlar soni 16134 nafar bo'lib, migratsiya saldosi manfiy 1678 kishini tashkil etgan. 2021 yilda respublikamizda ko'chib kelganlar va ketganlar soni eng yuqori bo'lgan. Ushbu yilda respublikamizga ko'chib kelganlar soni 256814 kishini ko'chib ketganlar soni esa 275079 kishini tashkil etgan. Migratsiya saldosi manfiy 18265 kishini tashkil etgan. 2022 yilda Surxondaryo viloyatida ko'chib kelganlar soni 9577 kishini, ko'chib ketganlar soni 13767 kishini tashkil etgan. Migratsiya saldosi manfiy 4190 kishini tashkil etgan. Mamlakatlar va mintaqalar aholisining o'sishida aholining mexanik harakati jarayonlari ham ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yilda viloyatda aholi migratsiyasi manfiy saldogaga ega bo'lgan. Tumanlar darajasida faqat ma'muriy markaz Termiz shahrida aholi migratsiyasi musbat saldoni tashkil etgan. Viloyatning qolgan barcha qishloq tumanlarida migratsiya saldosi manfiy ko'rsatkichni tashkil etgan. Ayniqsa viloyatning Denov, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Uzun tumanlarida yuqori, Oltinsoy, SHo'rchi, Muzrabot Boysun tumanlarida o'rtacha, qolgan SHerobod, Angor, Termiz, Bandixon tumanlarida past ko'rsatkichni tashkil etgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. H.M. Abdunazarov, M.H. Umarova, N.A. Esanov Surxondaryo viloyati geografiyasi.
2. surxon.stat.uz
3. A.S. Soliyev, N.K. Kornilova, S.L. Yanchuk, Sh.Z. Jumaxanov, F.T. Rajabov Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya.